



FAN, TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

ISSN: 2181-1776

Furqat Axmedov¹
Nodir Kulboyev²

¹ Jizzax davlat pedagogika instituti jismoniy madaniyat fakulteti dekani
e-mail: furkatquldashevich@gmail.com

² Jizzax davlat pedagogika instituti Jismoniy madaniyat fakulteti yoshlar bilan ishlash
bo'yicha dekan o'rinbosari
e-mail: dostonturayev27@gmail.com

TA'LIM TIZIMIDA JISMONIY MADANIYAT FANINING O'RNI HAMDA VAZIFALARI

Annotasiya. Maqolada jismoniy madaniyat fanining talim tizimidagi o'rni va ahamiyati, uni o'qitish orqali shaxsni nafaqat jismoniy jihatdan, balkim har tomonlama barkamol etib tarbiyalashga yo'naltirilgan funksiyalarini yoritib berishga qaratilgan.

Kalit so'zlar: Jismoniy madaniyat, talim tizimi, talim turi, tarbiya, fan, o'qitish, jamiyat, shaxs, barkamol inson, umuminsoniy g'oyalar.

МЕСТО И ЗАДАЧИ ФИЗИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ В СИСТЕМЕ ОБРАЗОВАНИЕ

Аннотация. В статье раскрывается значение и место физической культуры в системе образования, воспитание личности не только физически но и всесторонне развитым, именно в этом состоит суть этой статьи.

Ключевые слова: физическая культура, системе образования, вид образования, предмет, обучения, общество личность, гармоничный человек, культура, общечеловеческие ценности.

THE ROLE AND TASKS OF THE SCIENCE OF PHYSICAL CULTURE IN THE EDUCATIONAL SYSTEM

Annotation. The article focuses on the role and importance of the subject of physical culture in the education system, its functions aimed in educating the individual not only physically but also comprehensively.

Keywords: Physical culture, education system, type of education, subject, teaching, society, personality, harmonious human being, upbringing, humanly ideas.

Kirish. Tarixan hamma davrlarda jamiyatda talim-tarbiya masalasi eng dolzarb mavzu bo'lgan va bugungi kunda ham bu bosh masalalardan biri hisoblanadi. Chunki insonlarning talim-tarbiya ko'rganligi jamiyatning o'z davridagi butun bir mavjudligini, yani uning taraqqiyotini, turmush farovonligini, marifati va manaviyatini, iqtisodiy barqarorligini, jamiyat azolarining o'zaro hamkorligini, dunyoda tinchlikni saqlashni, inson omiliga bog'liq bo'lmagan turli muammolarning birgalikda yechimini topishning hal etuvchi kuchi bo'lib hisoblanadi. Shunday beqiyos tizimning tarkibiy qismi bo'lgan jismoniy madaniyat jamiyat azolarining har tomonlama barkamolligini va faolligini taminlashda o'ziga xos xizmat qiladi. Buni inobatga olgan holda mamlakatimizda jismoniy madaniyatga alohida etibor qaratilmokda. Talim tizimida jismoniy madaniyat o'quv fani sifatida o'qitiladi va bu fanning o'ziga xos maqsad hamda vazifalari bor. Jismoniy madaniyat fanining maqsadi etib, shaxsni jismonan kamolotga yetishtirish, har tomonlama barkamol etib tarbiyalash, ularni huquqiy demokratik davlatning faol ishtirokchilariga, ijodiy mehnat qilishga va Vatan mudofaasiga tayyorlashdan iborat, deb belgilangan. Bu maqsadga erishish uchun, albatta, jismoniy madaniyat fanini tarmoqlarga bo'lib o'rganish, ilmiy tadqiq etish natijasidagi olingan malumotlarni amaliyotga joriy etish va o'quvchilarga o'qitish orqali erishiladi. Shular orqali

jamiyat azolarining jismoniy madaniyatga doir bilim, ko'nikma va malakalari rivojlanib boradi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Literature review). O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-yanvardagi PF-5924-sonli "O'zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni yanada takomillashtirish va ommalashtirish to'g'risida"gi Farmoni qabul qilindi [1]. Ushbu Farmonning asosiy maqsadi etib, mamlakatda yuksak madaniyatga ega bo'lgan, har tomonlama yetuk hamda jismonan sog'lom insonni shakllantirish niyatida aholining jismoniy tarbiya va sport sohasidagi malaka va bilimlarini orttirishga qaratilgan ustuvor yo'nalishlarini belgilash, iqtidorli sportchilarni tanlab olish jarayoniga innovatsion shakllar va usullarni joriy etish belgilangan. Farmonga ko'ra talim tizimining barcha bo'g'inlarida sport inshootlarini ko'paytirish, o'quvchi va talabalar orasida muntazam ravishda turli sport musobaqalarini tashkil etish va o'tkazishni takomillashtirish orqali jismoniy madaniyatni ommalashtirish masalasi qo'yilgan. Bu o'z-o'zidan talim tizimi jismoniy madaniyatni takomillashtirishning huquqiy asoslari va imkoniyatlari, shuningdek, soha mutasaddilariga nisbatan talabning oshganligidan dalolat beradi. Ushbu farmon mazmunidan ko'rinib turibdiki, mamlakatimizda barcha sohalardagi kabi jismoniy madaniyatda ham demokratik yondashuv va umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan g'oyalar ilgari surilgan. Jismoniy madaniyat tarixiga nazar solinsa, bazi davrlarda undan umuminsoniy qadriyatlarga xos bo'lmagan maqsadlar yo'lida ham foydalangan. Masalan, quldorlik davrida qullarning ustidan hukmronlikni kuchaytirish va o'z hukmronligini saqlab qolish maqsadida quldorlarga maxsus jismoniy mashqlar bilan mukammal shug'ullanganlar. Shuningdek, bazi davrlarda agressiv xususiyatga ega davlatlar yoki ayrim jamiyatlar boshqalar ustidan hukmron bo'lish, bosqinchilik qilish maqsadida harbiylashtirilgan jismoniy tarbiya tizimini joriy etganlar. Aslida, jismoniy madaniyatning jamiyatdagi maqsadi faqat insonparvarlikka qaratilganligi nafaqat tarixiy-ilmiy asarlarda, shuningdek, diniy manbalarda, xususan, hadislarda ham o'z isbotini topgan [3-6].

Mutaxassislar L.P.Matveyev, A.D.Novikov, B.A.Ashmarin, A.S.Xolodov, X.T.Rafiyev, A.Abdullayev, R.Abdumalikov va boshqa ko‘plab olimlar tomonidan berilgan tariflar, sohaga oid lug‘atlar va ensiklopediyalardagi malumotlarga tayanib, jismoniy madaniyat umumiy madaniyatning tarkibiy qismi hisoblanib, u jismoniy tarbiya, sport, sport faoliyati, sport musobaqalari, jismoniy tarbiya va sport talimi, uning vositalari, metodlari, sport inshootlari, sport jihozlari, jismoniy tarbiya va sport tizimi kabi sohaga oid barcha tushunchalar va faoliyat turlarini qamrab oladi, degan xulosaga kelish mumkin. Shuning uchun ham biz mazkur masala yuzasidan olib boradigan fikr-mulohazalarimizni jismoniy madaniyat atamasi orqali yoritishni lozim topdik.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Hozirgi jamiyatda aholi jismoniy madaniyat tizimining asosiy bo‘g‘ini bo‘lib, bu talim tizimi jismoniy madaniyat hisoblanadi. Vaholanki, deyarli butun dunyoda bolalar va yoshlar amaldagi talim tizimida o‘qiydi, tarbiyalanadi, belgilangan bosqichlarni bosib o‘tadi hamda voyaga yetadi. Bizning mamlakatimizda ham zamonaviy talablar asosidagi talim turlari yo‘lga qo‘yilgan va bolalar hamda yoshlarni to‘liq qamrab olgan. Talimning turlari quyidagilardan iborat: yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasining “Talim to‘g‘risida”gi Qonuniga ko‘ra maktabgacha talim va tarbiya, umumiy o‘rta va o‘rta maxsus talim, professional talim, oliy talim, oliy talimdan keyingi talim, kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish, maktabdan tashqari talim. Har bir talim turi, bosqichi, jismoniy madaniyati o‘ziga xos maqsad va vazifalarni amalga oshiradi. Jismoniy tarbiyaning maqsadi insonning bolalik davridan boshlab jismoniy kamolotini shakllantirish, salomatligini mustahkamlash va ishchanlik qobiliyatini oshirish, jamiyatda sohaga oid barcha yo‘nalishlarni jamiyat taraqqiyoti bilan birgalikda rivojlantirib borishdan iborat.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Talim tizimida jismoniy madaniyatning maqsad-vazifalarini o‘rganishda, bazi mamlakatlarning ta‘lim tizimining dastlabki bosqichi bo‘lgan maktabgacha va boshlang‘ich sinflar jismoniy tarbiyasi tajribalari o‘rganildi. Jumladan, Rossiya federasiyasida maktabgacha va boshlang‘ich sinflar jismoniy madaniyati quyidagi maqsad-vazifalarni amalga

oshiradi. Maktabgacha va kichik maktab yoshidagi bolalar jismoniy madaniyatiga qaratiladigan asosiy jihatlar quyidagilardan iborat:

- bolalarning jismoniy mashqlarga va sogʻlom turmush tarziga ijobiy va faol yondashuvini shakllantirish;

- jismoniy madaniyatga ongli ravishda qiziqishi va sogʻlom turmush tarziga ijobiy yondashuvini shakllantirish;

- dastlabki harakat koʻnikmalarini, harakatlar koordinasiasini, qaddi-qomatni toʻgʻri tutishni, turli sport oʻyinlari va musobaqalarida ishtirok etishga intilish, ularning tashkilotchisi boʻlish va belgilangan tartib-qoidalariga amal qilish odatlarini shakllantirish;

- jismoniy mashqlar va turli oʻyinlar jarayonida xavfsizlik qoidalariga amal qilishga doir dastlabki tushunchalarni shakllantirishdan iborat.

Xitoy Respublikasida jismoniy tarbiya tizimida maktabgacha yoshdagi bolalarni maktabga tayyorlashda quyidagilarga asosiy etibor qaratilgan:

- yosh xususiyatiga koʻra jismoniy rivojlanishning asosiy bosqichi boʻlgan keyingi davrga tayyorlash;

- bolaning ijtimoiy sifatlarini shakllantirish (qatiyatlilik, toʻgʻrisoʻzlik, javobgarlik hissi, haqiqatgoʻylik, oʻzaro hamkorlik qilish v.b) jismoniy mashqlar bilan shugʻullanishga qiziqishini va faol turmush tarzini kechirishni shakllantirish;

- zaruriy harakat malakalarini rivojlantirish va xavfsizlik qoidalariga rioya qilish boʻyicha dastlabki tushunchalarni berishdan iborat.

Yaponiyada jismoniy tarbiya tizimida kichik maktab yoshidagi bolalar jismoniy tarbiyasi quyidagi vazifalarni bajarishi shart, deb hisoblaydi:

- zaruriy harakatlarni rivojlantirish;

- aqliy rivojlantirish;

- atrof-muhitga va odamlarga toʻgʻri munosabatni shakllantirish;

- amaldagi jamoa tartib-qoidalariga qatʼiy amal qilishga oʻrgatishdan iborat.

Finlandiyada maktabgacha yoshdagilar jismoniy tarbiyasining asosiy vazifasi:

- bolalarni asosiy va zaruriy harakat, malaka, ko‘nikmalariga moslashtirish, takomillashtirish;

- bolalarning jismoniy mashqlarga bo‘lgan qiziqishlarini oshirish;

- bolalarda jismoniy tarbiya va sportga ongli yondashuvini shakllantirishdan iborat.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Mamlakatimizda ham maktabgacha va boshlang‘ich talim yoshidagi bolalarning jismoniy madaniyatining o‘ziga xos maqsad-vazifalari mavjud, ammo bu tizimni yanada takomillashtirishga qaratilgan zamonaviy aniq maqsad-vazifalarni belgilab olish zarurati mavjud. Chunki mamlakatimizda talim tizimi tubdan isloh etilishi natijasida maktabgacha yoshdagi bolalar talim-tarbiyasiga qo‘yilayotgan talablar ham yangicha bo‘lishini taqozo etmoqda. Albatta, takomillashtirilgan zamonaviy jismoniy madaniyatni joriy etishda shu davrgacha orttirilgan tajribalar asosida shakllantirilishi va rivojlantirilishi zarur.

Talim tizimida jismoniy madaniyatning keyingi bosqichlarida ham o‘ziga xos maqsad-vazifalari belgilab berilgan bo‘lib, jismoniy tarbiya uzluksiz ravishda amalga oshiriladi (tizimning keyingi bosqichlarining maqsad-vazifalari, muammolari yuzasidan alohida malumotlar beriladi).

Mavjud talim tizimi davomida jamiyatda har tomonlama barkamol shaxsni tarbiyalash maqsad qilib olingan. Shunday ekan, jismoniy madaniyatni ushbu tizimning ajralmas tarkibiy qismi sifatida qarash va uni muntazam ravishda takomillashtirib borish zarur. Talim tizimining barcha bo‘g‘inlarida jismoniy madaniyatga alohida fan sifatida qarash va uning uzviyligini taminlash zarur. Shuningdek talim tizimida jismoniy madaniyatni o‘qitishda rivojlangan mamlakatlar (Finlandiya, Yaponiya, AQSh) usullaridan tegishlicha foydalanish maqsadga muvofiq.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 24 январдаги ПФ-5924-сонли “Ўзбекистон Республикасида жисмоний тарбия ва спортини янада такомиллаштириш ва оммалаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги Фармони // Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами. www.lex.uz.
2. Абдуллаев А. Хонкелдиев Ш. Х. Жисмоний маданият назарияси ва методикаси. Дарслик. – Т.: 2005, 245 б.
3. Абдумаликов Р. Соғлом авлод тарбиясида жисмоний тарбия ва спорт. Ўқув-услубий қўлланма. – Т.: 2003, 90 б.
4. Аҳмедов Ф. К. Жисмоний таълимда миллий анъаналарнинг ўрни. Монография. – Т.: 105 бет
5. Гурьев С. В. Теория и методика физического воспитания с практикумом (детей дошкольного и младшего школьного возраста). Учебник. – М.: 2020, 211 с.
6. Матвеев Л. П. Теория и методика физической культуры. Учебник. – М.: Физкультура и спорт 1991. 345 с.